ILMIY AXBOROT

Jo‘raxolova Bahora Qurbonboyevna (O‘zDJTU mustaqil tadqiqotchisi)

OILA TEMATIK GURUHIDA NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI GENDERGA OID KONSEPTUAL METAFORANING VOQELANISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nemis va o‘zbek tillaridagi genderga oid maqollar konseptual metafora nazariyasi asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda “oila”, “tenglik va tengsizlik”, “tarbiya va odat” tematik guruhlari doirasida erkak va ayol obrazlarining metaforik voqelanishi yoritiladi. Tahlil natijalari har ikki til va madaniyatda gender rollari an’anaviy ijtimoiy qarashlar asosida shakllanganini, ular maqollar orqali mustahkamlanib, avloddan avlodga uzatilishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *konseptual metafora, gender, maqollar, oila konsepti, nemis tili, o‘zbek tili, qiyosiy tahlil, madaniyat va til.*

Джурахолова Бахора Курбонбоевна (соискатель Узбекского государственного университета мировых языков)

РЕАЛИЗАЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ МЕТАФОР В ТЕМАТИЧЕСКОЙ ГРУППЕ “СЕМЬЯ” В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В данной статье на основе теории концептуальной метафоры проводится сопоставительный анализ гендерно маркированных пословиц в немецком и узбекском языках. В рамках тематических групп «семья», «равенство и неравенство», «воспитание и обычай» рассматривается метафорическая репрезентация образов мужчины и женщины. Результаты анализа показывают, что в обеих языковых и культурных системах гендерные роли формируются на основе традиционных социальных представлений, закрепляются в пословицах и передаются из поколения в поколение.*

Ключевые слова: *концептуальная метафора, гендер, пословицы, концепт семьи, немецкий язык, узбекский язык, сопоставительный анализ, язык и культура.*

Juraholova Bahora Kurbonboyevna (Researcher at the University of world languages)

“THE REALIZATION OF GENDER-RELATED CONCEPTUAL METAPHORS IN THE THEMATIC GROUP ‘FAMILY’ IN THE GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. *This article presents a comparative analysis of gender-related proverbs in the German and Uzbek languages based on the theory of conceptual metaphor. Within the thematic groups “family,” “equality and inequality,” and “upbringing and tradition,” the metaphorical realization of male and female images is examined. The results of the analysis demonstrate that in both linguistic and cultural systems, gender roles are shaped by traditional social views, reinforced through proverbs, and transmitted from generation to generation.*

Keywords: *conceptual metaphor, gender, proverbs, family concept, German language, Uzbek language, comparative analysis, language and culture.*

Kirish. Til va tafakkur o‘zaro bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayon bo‘lib, inson dunyoqarashi til orqali namoyon bo‘ladi. Konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra, odamlar murakkab tushunchalarni yanada sodda, tajribaga yaqin sohalar orqali anglaydi. Shu ma‘noda, har bir til va madaniyatda alohida ahamiyatga ega bo‘lgan “oila” konsepti ham o‘ziga xos metaforik modellar orqali voqelanadi. Nemis va o‘zbek tillari turli madaniy makonlarga mansub bo‘lsada, oilaga oid tasavvurlarida umumiyliklar bilan birga sezilarli farqlar ham mavjud. O‘zbek tilida oila qadimdan “muqaddas makon”, “baraka manbai” sifatida tasvirlanadi. Shu bois bu tilda oila, ko‘pincha, makon, o‘choq, qal‘a, poydevor kabi metaforalar orqali ifodalanadi. “Oila o‘chog‘i”, “oila qal‘asi”, “mustahkam poydevor”, “barakali uy”, “oila tomiri” kabi birikmalar oila tushunchasining issiqlik, barqarorlik va avlodlar davomiyligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. O‘zbek madaniyatiga xos bo‘lgan jamoaviylik elementlari oila metaforalarida ham namoyon bo‘ladi: oila, ko‘pincha, jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, mahalla tizimining ajralmas qismi sifatida idrok etiladi. Shu sababli “katta oila”, “elning bo‘g‘ini”, “oila jipsligi” kabi tushunchalar keng qo‘llanadi. Nemis tilida esa oila ko‘proq ijtimoiy birlik va institut sifatida talqin qilinadi. “Familie als soziale Einheit”, “Familie als Institution”, “Familienstruktur” kabi birliklar nemis madaniyatida oilaning tartibli, tizimli ijtimoiy bo‘linma sifatida tasavvur qilinishini ko‘rsatadi. Shuningdek, nemis tilida tabiat bilan bog‘liq metaforalar ham keng tarqalgan bo‘lib, oila, ko‘pincha, daraxt yoki ildiz orqali ifodalanadi: “Stammbaum” (nasab daraxti), “Familienwurzeln” (oila ildizlari) kabi atamalar bunga misol bo‘ladi. Bu metaforalar avlodlar davomiyligida oilaning o‘rnini ta‘kidlaydi. Har ikki tilda mavjud bo‘lgan umumiy metaforalardan biri oila hayot yo‘li sifatida talqin

qilinishidir. O‘zbek tilidagi “umr yo‘lini birga bosib o‘tish”, “oila qurish yo‘li” kabi iboralar bilan nemis tilidagi “den Lebensweg gemeinsam gehen” birikmasi o‘xshash semantik asosga ega. Bu metaforada oila insonning hayotiy safarida hamroh, qo‘llab-quvvatlovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, ikki tilda ham oila himoya, tayanch yoki barqarorlik manbai sifatida tasvirlanadi. O‘zbek tilida bu “qal‘a”, “pana”, “poydevor” orqali berilsa, nemis tilida “Schutzraum” (himoya maydoni), “Rückhalt” (tayanch) kabi mavhumroq metaforalar qo‘llaniladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Oila” tematik guruhida nemis va o‘zbek tillaridagi konseptual metaforalarning voqelanishi har ikki tilda oilaviy munosabatlar, ota-ona va farzand rollari, erkak va ayolning ijtimoiy vazifalari haqidagi tasavvurlarni metaforik vositalar orqali ifodalash jarayonini anglatadi. Ushbu metaforalar madaniyatning gender tizimini aks ettiradi hamda jamiyatda erkak va ayolga yuklatilgan stereotipik vazifalar, tarbiyaviy model va ijtimoiy xulq me‘yorlarini til birliklari orqali mustahkamlaydi. Nemis va o‘zbek tillaridagi maqollar tarkibida genderga oid konseptual metaforalar, asosan, “OTA – NAMUNA; O‘G‘IL – AKS” va “ONA – NAMUNA; QIZ – AKS” kabi strukturalar asosida qurilgan bo‘lib, ular orqali erkaklik va ayollikning tarbiyaviy va ijtimoiy jihatlari ifodalanadi. Har ikki til madaniyatida gender rollari oilada shakllanadigan tarbiya natijasi sifatida talqin qilinadi, biroq nemis tilida bu jarayon ko‘proq mavhum ijtimoiy xulq sifatida, o‘zbek tilida esa amaliy hayotiy tajriba va oilaviy qadriyatlar orqali ifodalanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tematik guruhda voqelangan metaforalar nemis va o‘zbek madaniyatlarida gender rollarining shakllanishi, avlodlar o‘rtasidagi tarbiyaviy uzviylik va oilaning ijtimoiy model sifatidagi ahamiyatini til orqali konseptual ravishda yoritadi. Quyida ushbu metaforik modellarning amaliy ko‘rinishi sifatida nemis va o‘zbek tillaridagi maqollarni ko‘rib chiqamiz.

Masalan, nemis tilida: *Ehemann und Ehefrau – ein Herz und eine Seele* [1;123-b.]. (Er-xotin – bir yurak, bir jon). Ushbu maqolda oila tushunchasi BIR BUTUN TAN metaforasi orqali ifodalanadi. Bu yerda er va xotin alohida shaxslar sifatida emas, balki yagona ruhiy va hissiy birlik sifatida talqin qilinadi. Nemis tilidagi “Herz” va “Seele”, o‘zbek tilidagi “yurak” va “jon” tushunchalari ruhiy yaqinlik, totuvlik va hamfikrlikni ifodalaydi. Bu metafora ikki insonning oila ichida hamjihatlik va uyg‘unlikka asoslangan birlik tashkil etishi kerakligini ko‘rsatadi.

Ein braver Mann ist Herr seines Pferdes und Genosse seiner Frau [9; 386-b.] (Aqlli erkak otni boshqaradi, xotiniga hamfikr bo‘ladi). Maqol oilaviy hayotda erkakning ikki xil rolini ko‘rsatadi: tashqi kuchga hukmron, lekin oilada ayol bilan teng va mehr muhabbat asosida yashovchi shaxs. Metaforik jihatdan esa oila mulozamat, hamkorlik va muvozanat tamoyillariga asoslangan birlik sifatida talqin qilinadi.

Hinter jedem starken Mann steht eine starke Frau [1;181-b.]. (Erkakning kuchi – ayolning qo‘llab-quvvatlashida). Ushbu maqolda oila o‘zaro qo‘llab-quvvatlash orqali mustahkamlikka erishuvchi birlik sifatida tasvirlanadi. Nemischa tilidagi “starke Frau” va o‘zbekcha tarjimada “ayolning qo‘llab-quvvatlashida” birikmalari OILA – IKKI SHAXS ORQASIDA YOTGAN KUCH metaforasini voqelantiradi. Bu maqol oiladagi gender rollarini ham ko‘rsatadi: erkak tashqi faoliyatda kuchli bo‘lishi, ayol esa uy-joy va ruhiy tayanch orqali oilaviy barqarorlikni ta‘minlashi kerakligini anglatadi. Shu tariqa, maqol oiladagi o‘zaro bog‘liqlik va hamkorlikning muvaffaqiyat manbai ekanini konseptual metafora orqali ifodalaydi.

Mann und Frau sind ein Leib [9;365-b.]. (Er-xotin–bir tan, bir jon) maqolida oila yagona tana sifatida metaforik tarzda tasvirlanadi. Bu yerda erkak va ayol ikki alohida individ sifatida emas, balki bir butun jismning bo‘laklari sifatida talqin etiladi.

Der Mann ist das Haupt des Hauses, die Frau ist der Hals, der den Kopf dreht [1; 181] (erkak – bosh, ayol – bo‘yin). Maqolda erkak tashqi rahbar, ayol ichki boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, oilaning samarali va barqaror bo‘lishi ikki tomonning uyg‘unligiga bog‘liq ekani ta‘kidlanadi.

Masalan, o‘zbek tilida: *Ayolning sarishtasi, ro‘zg‘orning farishtasi* [5;126-b.]. Maqol ayolning uy va oila tartibini saqlash, uy-joy ishlarini nazorat qilishdagi muhim rolini, oilaga baraka, farovonlik va tinchlik olib keluvchi shaxs ekanligini anglatadi.

Kelin qaynona supurgisi [5;127-b.] maqoli o‘zbek madaniyatida kelinning an‘anaviy o‘rnini ifodalovchi kuchli metaforik birlikdir. Ushbu maqolda oila mehnat, tartib va majburiyatlar asosida tashkil topgan tizim sifatida talqin qilinadi. “kelin – supurgi” metaforasi orqali kelinning uy ishlarining asosiy bajaruvchisi, tozalik va tartibni ta‘minlovchi shaxs sifatidagi roli ko‘rsatiladi. Supurgi tozalik va doimiy mehnat timsoli bo‘lganidek, kelin ham qaynona uyidagi asosiy xizmat ko‘rsatuvchi sifatida tasvirlanadi.

Ota –aql, ona –idrok [5;127-b.]. Ushbu maqolda oila fikr va sezgi uyg‘unligidan tarkib topgan tizim sifatida talqin qilinadi. Ota “aql” metaforasi orqali oilada mantiq, tartib, qaror qabul qilish va mas‘uliyat

timsoli sifatida tasvirlanadi. Ona esa "idrok" sifatida oilaning sezgi, tushunish, mehr-muhabbat va ruhiy barqarorlikni ta'minlovchi markazi sifatida gavdalanadi. Bu metaforalar orqali oilaning mustahkamligi ikki tomonning bir-birini to'ldiruvchi aqliy va hissiy funksiyalari uyg'unligiga bog'liqligi ta'kidlanadi.

Xotin – uy bezakchisi, er – uy ko'makchisi [5;128-b.] maqoli oila ichidagi gender rollarining estetik va funksional taqsimlanishini metaforik tarzda ifodalaydi. Unda oila uy obraziga qiyoslanadi: ayol "uy bezakchisi" sifatida oilaning go'zalligi, tartibi, muhitning iliqligi va estetik uyg'unligini yaratadigan shaxs sifatida talqin qilinadi. Uning mehr-muhabbati, sarishtaligi va e'tibori uyga "bezak" kirituvchi asosiy omil sifatida ko'riladi. Erning "uy ko'makchisi" deb tasvirlanishi esa uning oilani moddiy jihatdan ta'minlovchi, tashqi yumushlarni bajaruvchi va oila barqarorligini qo'llab-quvvatlovchi rolini anglatadi.

Xulosa. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida oila ko'proq hissiy-obrazli, milliy qadriyatlar bilan boyitilgan metaforalar orqali voqelanadi. Issiqlik, baraka, uy o'chog'i kabi tushunchalar oilaning madaniy hayotdagi markaziy o'rnini aks ettiradi. Nemis tilida esa oila ko'proq tartib, tizim, ijtimoiy mas'uliyat kabi tushunchalar orqali talqin qilinadi. Nemis va o'zbek tillaridagi "oila" tematik guruhidagi konseptual metaforalar oilaning tarkibi, vazifalari va gender rollarini tasvirlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek tilida oila, ko'pincha, muqaddas makon, baraka manbayi va jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida, tabiat va makon metaforalari orqali ifodalanadi. Nemis tilida esa oila ijtimoiy birlik va institut sifatida, daraxt va ildiz kabi metaforalar yordamida talqin qilinadi. Maqollar orqali er va xotin o'zaro hamjihatlik, qo'llab-quvvatlash va uyg'unlik tamoyillari asosida tasvirlanadi. Ayol, ko'pincha, uy, tartib, farovonlik hamda mehr-muhabbatning ramzi sifatida namoyon bo'lsa, erkak rahbarlik, mas'uliyat va tashqi faoliyatdagi kuch bilan ifodalanadi. Biroq maqollarda oilaning barqarorligi va baxti faqatgina gender rollar taqsimoti bilan emas, balki er-xotinning o'zaro kelishuvi, birgalikdagi harakati va tarbiyaviy qadriyatlarni mustahkamlashi orqali ta'minlanishi alohida ta'kidlanadi.

"Oila" tematik guruhidagi maqollar esa erkak va ayolning oilaviy vazifalarini aniq chegaralangan ko'rinishda tasvirlaydi. Erkak, asosan, tashqi faoliyat, himoya va ta'minot bilan bog'lanar ekan, ayol uyning muhitini yaratish, farzand tarbiyasi va ichki muvozanatni ta'minlash kabi mas'uliyatlar bilan talqin etiladi. Bu esa gender rollarining ijtimoiy tizimda qat'iy ajratilganligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Beyer H., Beyer A. Sprichwörterlexikon. Sprichwörter und sprichwörtliche Ausdrücke aus deutschen und Sammlungen von 16. Jahrhundert bis zur Gegenwart. München, Verlag, 2022, s. 79.

(2). Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. Chicago, University of Chicago Press, 1980, p. 125; 113.

(3). Lakoff G. The neural theory of metaphor. Cambridge/New York, Cambridge University Press, 2008, p. 49, 141; 114.

(4). Lakoff G. The contemporary theory of metaphor. Cambridge/New York, Cambridge University Press. 1993, p. 7.

(5). Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. Ko'rsatilgan asar. 2005, 127-bet.

(6). Röhrich L. Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. Freiburg, Herder, 1991, s. 167.

(7). Suvonqulova X. O'zbek xalq maqollari. Toshkent, 2014, 8; 153-bet.

(8). Simrock K. Die deutschen Sprichwörter gesammelt. Frankfurt am Main: Universitaetsverlag Winter, 2009, s. 34.

(9). Wanderer K.F. Sprichwörterlexikon. Leipzig, Brockhaus Verlag, 2016, s. 386.

(10). Wehrle H., Eggers H. Deutscher Wortschatz. Ein Wegweiser zum treffenden Ausdruck. St.:1993, s. 95.

Murotova Gulnoz Nematovna (Jizzax davlat Pedagogika universiteti Filologiya fakulteti dotsenti v/b.; e-mail: gulnozmurotova67@gmail.com)

SALOMATLIK ALOQASIDA MULTIMODAL MADANIY MOSLASHUV: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SOG'LIQNI SAQLASH KAMPANIYALARIDAGI PRAGMATIK VA VIZUAL ELEMENTLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida olib boriladigan sog'liqni saqlash kampaniyalarida multimodal kommunikatsiya vositalarining madaniy moslashuvi tahlil qilinadi. Tadqiqot pragmatik strategiyalar va vizual elementlarning sog'liq haqidagi xabarlarni qabul qilishga ta'sirini qiyosiy jihatdan o'rganishga qaratilgan. Ingliz va o'zbek madaniyatlarida sog'liq, kasallik va profilaktika tushunchalarining turlicha talqin qilinishi multimodal diskursda muhim farqlarni yuzaga keltiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi kampaniyalarda individual mas'uliyat va vizual minimalizm ustuvor bo'lsa, o'zbek tilidagi sog'liq diskursida kollektiv qadriyatlar va emotsional tasvirlar yetakchi o'rin egallaydi.*